

77. Yuz birliklari va ular orasidagi bog'lanishlar

Yondosh mavzu:
quroq tikish.

Kvadrat metr,
kvadrat detsimetr,
kvadrat santimetr.




1. Madina quroq tikishga qiziqib qoldi. Yostiqli uchun u $10\text{ cm} \times 10\text{ cm}$ o'lchamdagi bir xil parchalarni tayyorladi. Agar yostiqliqning tomonlari rasmdagi kabi bo'lsa, u qanday o'lchamda bo'ladi? Yostiqli uchun qancha parcha ishlatiladi?



2. Madina tomonlari 1 dm bo'lgan xuddi shunday kvadrat parchalardan quroq ko'rpa tikmoqchi. Ko'rpaning har ikki tomoni quroqdan tikiladi. Ko'rpaning o'lchamlari $180\text{ cm} \times 220\text{ cm}$. Unga nechta parcha kerak bo'ladi?

Barcha yuz birliklari o'zaro bog'langan



3. Qulay o'lchov birligiga keltirib hisoblang.

$$23\text{ ha } 56\text{ a} + 183\,000\text{ m}^2 - 2\,760\text{ a}$$

$$45\text{ m}^2\ 30\text{ dm}^2 : 6 + 1\,200\text{ cm}^2 \cdot 82$$

$$(400\,000\text{ mm}^2 - 30\text{ dm}^2\ 4\text{ cm}^2) \cdot 501$$




4. a) Rasmdan foydalanib, bu kvadratda necha ar borligini ayting. Buni qanday aniqladingiz?

b) Bo'sh joylarni to'ldirib, daftaringizga yozing.

$$1 \text{ m}^2 = \dots \text{ dm}^2 = \dots \text{ cm}^2 = \dots \text{ mm}^2$$

$$1 \text{ a} = \dots \text{ m}^2 = \dots \text{ dm}^2 = \dots \text{ cm}^2$$

$$1 \text{ ha} = 1 \text{ a} = \dots \text{ m}^2 = \dots \text{ dm}^2$$



5. Keltirilgan o'lchov birliklarida yozing.

$$7 \text{ ha} = \square \text{ m}^2$$

$$3 \text{ a} = \square \text{ cm}^2$$

$$80 \text{ ha} = \square \text{ a}$$


$$6\,400 \text{ dm}^2 = \square \text{ cm}^2$$

$$440\,000 \text{ dm}^2 = \square \text{ ha}$$

$$5 \text{ ha} = \square \text{ dm}^2$$



6. Quroq ko'rpa turli kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bo'lakchalardan tikilgan. Katta va kichik bo'lakchalarning o'lchamlari va nisbatlarini bilgan holda, bu ko'rpaning yuzini toping.



77. Yuz birliklari va ular orasidagi bog'lanishlar



7. Quroq tikish texnikasi nima deb atalishini aniqlang. Amallarni to'g'ri tartibda bajaring, harflarni hosil bo'lgan natijalarga muvofiq joylashtiring.

$$72\ 000 : 60 \cdot 3 + 90\ 000 : (63\ 000 : 70 + 100) - 2\ 100$$


3 600	1 590	90	900	3 690	1 200	1 000
V	K	O	P	R	CH	E



8. Ko'rpa tikish darsi soat 11:30 da boshlanib, 45 minutdan ikki dars davom etdi. Darlar orasida 10 minutlik tanaffus bo'ldi. Dars soat nechada tugadi?



9. Polotnodagi naqsh ko'rinishi va o'lchamlari bir xil bo'lgan to'rtta shakldan iborat. Bu shakllar qanday ko'rinishda bo'lganini ko'rsating. Agar butun naqshning yuzi 784 cm^2 bo'lsa, shu bo'laklardan har birining yuzini toping.



10. Eng kichik yuz birligiga keltirib hisoblang.

$$34\text{ ha } 12\text{ a} + 41\text{ ha } 94\text{ a}$$

$$87\text{ m}^2\ 5\text{ dm}^2 - 29\text{ m}^2\ 75\text{ dm}^2$$

$$14\text{ dm}^2\ 53\text{ cm}^2 \cdot 18$$

$$5\text{ cm}^2\ 76\text{ mm}^2 : 24$$



11. Turli mamlakatlarda odamlar eng katta quroq choyshablar tikishga harakat qilishadi. Hozirgi kunda, 2000-yil 18-iyungacha tikib tugallangan quroq choyshab eng katta quroq choyshab hisoblanadi. Uning uzunligi 200 m, kengligi esa uzunligidan 3000 cm qisqa. Ushbu quroq choyshabning yuzi qanday?